

2034-yilga kelib polimer emulsiyalari jahon bozori 60 milliard dollarga yetishi mumkin

// 10 October 2025 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2034-yilga-kelib-polimer-emulsiyalari-jahon-bozori-60-milliard>



2024-yilda polimer emulsiyalari jahon bozorining hajmi 31 milliard dollarni tashkil etdi. 2034-yilga kelib u 60 milliard dollardan oshib ketishi kutilmoqda. 2025-yildan 2034-yilgacha bo'lgan davrda bozor har yili o'rtacha 6,73% o'sishi mumkin. Bu haqda PR agentligi o'zining so'nggi hisobotida ma'lum qildi.

2024-yilda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi global bozorda 35% ulush bilan yetakchi pozitsiyalarni egalladi. Bu miqdor pul ifodasida 10,8 milliard dollarni tashkil etib, 2034-yilga kelib 21 milliard dollarga yetishi mumkin. Bunda davrda mintaqaning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 6,88% ni tashkil etadi.

Prognoz davri mobaynida eng tez o'sadigan bozor — Shimoliy Amerika bo'lishi kutilmoqda. O'tgan yili mazkur mintaqaning bozordagi ulushi 31% ni tashkil qilgan. Yevropa 26%, Lotin Amerikasi 5%, Yaqin Sharq va Afrika mamlakatlari esa 3% ulushga ega bo'lgan.

Avvalroq 2034-yilga kelib jahon pigment dispersiyalari bozori 41,28 milliard dollargacha o'sishi mumkinligi xabar qilingan edi.

